

**“VAQT” HAQIDAGI MAQOLLARNING STRUKTURAL  
TUZILISHIDAGI O’ZIGA XOSLIKLER**

**Mamarajabova Iroda Fayzullayevna,**  
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti doktoranti*  
*E-mail: [mamarajabovairoda088@gmail.com](mailto:mamarajabovairoda088@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, vaqtning tushuncha va ta’sirining o’zgarishini tushuntirish, uning ahamiyatini belgilash, vaqt bilan bog’liq maqollarning qurilishi va ularning ma’nosi orasidagi munosabatlarni tahlil qiladi.

Qolaversa, vaqtga oid maqollarning o’zaro bog’liqliklarini va ularning struktural qurilishini o’rganish orqali, vaqtning madaniy, psixologik, va estetik boyliklariga oid tushunchalar beradi. Jumladan, tadqiqotchilar uchun asosiy maqbul ma'lumot manbalaridan foydalanib, vaqtga oid maqollarning struktur-semantik xususiyatlarini analiz qilish orqali, ularning tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** *frazema, Boburnoma, vaqt, tarix, "konseptualizm", o‘lchov.*

### **KIRISH**

Vaqt mavhum tushuncha bo‘lib, ayni paytda insonning kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Vaqtning tushunish uchun faqat boshqa narsa va tushunchalardan foydalanishimiz mumkin. Ba’zida “vaqt – samaradorlik”, “vaqt - hayot”, “vaqt - pul”, “vaqt - daryoga o‘xshaydi”, “vaqt - shifokor” kabi ta’riflar “vaqt” tushunchasini aniqlashning murakkabligini ko‘rsatadi va aniq tildan foydalanish qiyin. Ko‘rinib turibdiki, vaqtning tushunish uchun vaqtdan boshqa tushunchalarga tayanish kerak, bu esa vaqtning bilish va zamon tasvirining metaforik va metonimik xususiyatlarini ham belgilaydi.

### **ASOSIY QISM**

O‘zbek tilida “vaqt” konseptiga oid *Vaqt –oliy hakam, Vaqting bor –naqding bor, Vaqting ketdi, baxting ketdi, Vaqt – g‘animat, Fursat –g‘animat, Avval o‘yla , keyin so‘yla* kabi maqollar ishlataladi. Maqollarda vaqt donishmand, tabib, suv, shamol, elga qiyoslanadi. Vaqtning o’tkinchilik, ortga qaytmaslik, shiddatlilik xususiyatlari ifodalangan.

O‘zbek maqollarida “har bir harakat, hodisa Alloh taqdirda bitgan vaqtida sodir bo‘ladi”, “har narsaning o‘z vaqtini bor” degan kognitiv belgi aks etadi. Bu belgilar *Men qilaman– o‘ttiz, tangrim qiladi –to‘qqiz, Ko‘za kunda emas, kunida sinadi* kabi maqollarda aks etgan. *Avval o‘yla – keyin so‘yla* maqolida “vaqt” konsepti fikr ifodasini nazaorat qilish mazmuni orqali ifolangan. *Aytigan so‘z –otilgan o‘q, Til yarasi bitmas* maqollari “vaqt” konseptining qaytarilmas belgisini namoyon etadi. *Qolgan ishga qor yog‘ar* maqoli “o‘z vaqtida bajarish” kognitiv mazmunini ifodalashga xizmat qiladi.

So‘nggi ishlarda paremiyalarga maqol, matal, frazemalarni kiritishmoqda. Hozirgi kunda olimlar paremiologiyaning o‘rganish obyekti safiga oldingidan ko‘proq birliklarni qo‘shmoqdalar.

Xususan, til birliklarining payt valentligi ham ayrim tadqiqotlarda ko‘zga tashlana

boshlandi. Professor M.Mirtojievning ko'rsatib o'tishicha, "Payt valentligi namoyon bo'lgan aktant deyarli payt ravishlarida yoki vaqt bildiruvchi otlarda ifoda topadi"<sup>1</sup>. Shuningdek, o'zbek tilidagi fe'l frazemalar predikat bo'lganda doimo zamon kategoriyasiga ega bo'ladi. Shuning uchun ular temporal (payt) valentligiga ega bo'ladi. Ko'p hollarda o'zbek tilida bu valentlik leksik vositalar bilan to'ldirilmasligi mumkin, buning assosiy sababi kesimning zamon qo'shimchalari bilan tuslanishidir. Vaqt semali paremiyalar eski o'zbek tilidagi yirik manba hisoblangan "Boburnoma"da uchraydi. Dushman ne demas, Tushga ne kirmas. Ushbu maqoldagi "tush" leksemasi aynan qadim turkiy til ("Oltun yorug" – "qisqa lahma, payt" manosida qo'llanilgan)dagi tüsdir. Zikri nomero hakimon umri soniy guftand maqoli Shuhrat bilan yodlanishni hakimlar ikkinchi umr derlar(b.142.) degan ma'noni beradi. Bu maqol orqali Bobur barchaga xayrli ishlar qilishni, o'limidan keyin boshqalar faqat yaxshi nom bilan eslashi ham baxtligini eslatadi. Boshqa bir o'rinda askarlariga dalda va shijoat berish uchun ushbu aforizmlarni keltiradi: Harki omad ba jahon ahli fano xohad bud, Onki poyandavu boqist, Xudo xohad bud (b.223.) Har kimsa bu jahonga kelarkan, oxirda yo'qlikka ketadi, abadiy qoluvchi yolg'iz Xudodir. Yoki: Ba nomi neku gar bimiram ravost Maro nom boyadki, tan margrost (b.223.) Yaxshi nom bilan o'lsam, shu yetadi, menga yaxshi nom kerak, tana esa o'lim uchundi<sup>2</sup>. «Qopudag'ini qopmasa, qarig'uncha qayg'urur» (eshigi oldiga kelganni qopmasa (jazolamasa), qariguncha afsuslanadi) maqoli ham yaxshi misol bo'ladi.

Ushbu maqol o'z paytida qilinmagan qaroridan achinish tufayli keltirilgan. Shuningdek, ushbu holda aforizm bilan ifodalanadi: Korhoro bavaqt boyad shud, Kori bevaqt sust boshad, sust (b.74) (Ishlar vaqtida bajarilishi kerak, vaqtida bajarilmagan ish sust bo'ladi). Bu bayt hozirgi "Har ishning mavridi – o'z vaqt" maqoliga teng keladi. Boburning o'lim bilan yuzlashgan payti, Ahmad Tanbalning ta'qibiga uchragan, hechkimsiz, g'animning ikki makkor navkariga ishonishdan o'zga chorasi qolmagan bir paytda u Agar sad solmoni va-r yake ro'z Biboyad raft az in koxi dilafro'z(b.99.) (Agar yuz yil va agar birgina kun yashasang ham, ko'ngil ochuvchi bu qasrdan ketish kerak bo'lur) aforizmini keltiradi. O'sha paytda "Olamda jon vahmidin yomonroq nima bo'lmas emish" deb o'z holatini ifodalaydi.

Bu paytda Bobur hayotining so'nggi kunlarini kechirayotganligiga ishonchi komil edi, keyingi holatda esa u o'lim o'ziga qay darajada yaqinligini bilmassi: Kim o'lar holatga yetsa, ul bilur jon qadrini (b.218.) maqoli Boburning Ibrohim Ludiyning onasi malika Bayda tomonidan zaharlanishi voqeasi tasvirida beriladi. Shu o'rinda Bobur jon mundog' aziz nima emish, muncha bilmas edim, – deb ko'nglidan kechganini ro'y-rost aytadi. Vaqt mazmuni ifodalangan paremiya sifatida On guzarro ob burd (b.104.) – ul kechuvlarni suv olib ketdi matalini keltirishimiz mumkin. Bu matal "u davrlar o'tdi, hozir zamon boshqa" degan ma'noda qo'llaniladi. Bu matal Xisravshoh va Bobur o'rtasidagi suhbat tasvirida beriladi. O'z ma'nosida "Amudaryo kengayib, atrofidagi guzarlarni suv olgan", – degan tushunchani bersa, ko'chma ma'noda "Xisravshohning

<sup>1</sup> Mirtojiyev, M.M. O'zbek tili semasiologiyasi / M.M.Mirtojiyev; mas'ul muhar rir A.P.Hojiyev. - T.: MPMT, 2010. - 288 b.

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. – Toshkent: Universitet, 1992. – B.2. 52 Hakimov Q. O'zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – B.24.

shavkatli davrlari o‘tdi, endi u Boburga tobe” degan fikrni ifodalashga xizmat qiladi.

“Boburnoma”da “vaqt” semali frazemalar ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Quyida ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz: bir sut pishimi – “bir sut pishguncha bo‘lgan vaqt” (Yana Jahongir mirzoni bir sut pishimi burunroq qavlab chaqiribturlar. b.96); rajab oyining g‘urrasi – “rajab oyining boshi (birinchi kuni)da” (Ul yurttin chahorshanba kuni, rajab oyining g‘urrasida ko‘chub, Alvarning ikki ko‘ruhisida kelduk.b.230), oftob hanuz o‘lturmay – “kun botmasdan” (Oftob hanuz o‘lturmaydur edikim, daryodin kechildi. b.246); ushbu so‘zning ustida – “shu payt” ( Ushbu so‘zning ustida erdikim, bog‘ning devoridin tashqari qalin otliqning kelur ovozi keldi. b.100); zavol vaqt – “kun botish payti” (Zavol vaqtig‘acha bunda ichildi. b.179); tush qotila – “tush payti” (Andin erta ko‘chub, Kachakot suvini o‘tub, tush qotila Sandaki ko‘talini oshib tushuldi. b.165.); farz vaqtida – (Farz vaqtida g‘anim ustig‘a yetarlar. b.190.), tush qayta – “tushdan so‘ng” (Seshanba kuni, oyning o‘n to‘qquzida tush qayta xoja Seyoron sariq‘a otlanildi (b.72.).<sup>3</sup>

Leksema va frazema ma’nosidagi komponent paremiologiya fani borasida ko‘pgina tilshunos olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ularning har qaysi biri ushbu termin to‘g‘risida o‘zlarining alohida fikrlarini bildirishgan. Juda katta davr ichida olimlar, tilshunoslar har biri ularni, ya’ni paremiologiya fanining obyektlaridan biri bo‘lmish maqollarni o‘zicha tasnif qilgan. Natijada maqollarni tasnif qilishning bir necha turi vujudga kelgan. Olimlarimiz tomonidan paremik birliklar tarkibi har xil belgilanadi.

### FOYDALANGAN MANBA ADABIYOTLAR:

1. Mirtojiyev, M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi / M.M.Mirtojiyev; mas’ul muhar rir A.P.Hojiyev. - T.: MPMT, 2010.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi. – Toshkent: Universitet, 1992.
3. Hakimov Q. O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 1994.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Hozirgi o‘zbek tiliga V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayevalar tabdil qilishgan. – Toshkent, 2008. – B.52-72.

<sup>3</sup>Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Hozirgi o‘zbek tiliga V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayevalar tabdil qilishgan. – Toshkent, 2008. – B.52-72.